

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 83 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	



TO'LOV AYLANMASINING MOHIYATINI ANIQLASHDA TO'LOV VA TO'LOV OQIMLARINING ROLI

I.F. Sayfiddinov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada to'lov aylanmasining mohiyati, u bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llarining ilmiy va amaliy jihatlarini muhokama qilingan. To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlash uchun, avvalo, to'lov tushunchasining mohiyatini belgilab olish lozimligi ochiq-oydin bayon etilgan. "To'lov" tushunchasining mohiyatini belgilamasdan turib, "to'lov aylanmasi" mohiyatini aniqlash imkoni yo'qligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: to'lov, to'lov aylanmasi, to'lovga layoqatsizlik, to'lov intizomi, makroiqtisodiy barqarorlik, YaIM (Yalpi ichki maxsulot), pul massasi, pul agregati (M2), debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari.

Abstract: This scientific article discusses the essence of the payment turnover, related problems, and the scientific and practical aspects of solving them. In order to determine the nature of payment turnover, the article clearly states that it is first necessary to define the concept of "payment." It is emphasized that without defining the essence of the term "payment," it is impossible to determine the nature of "payment turnover".

Key words: payment, payment turnover, insolvency, payment discipline, macroeconomic stability, GDP (Gross Domestic Product), money supply, money aggregate (M2), accounts receivable, accounts payable.

Аннотация: В данной научной статье обсуждаются сущность платёжного оборота, связанные с ним проблемы и научные и практические аспекты их решения. Для определения сущности платёжного оборота ясно изложено, что прежде всего необходимо определить сущность понятия "платёж". Подчёркивается, что без определения сущности понятия "платёж" невозможно определить сущность "платёжного оборота".

Ключевые слова: платёж, платёжный оборот, неплатёжеспособность, платёжная дисциплина, макроекономическая стабильность, ВВП (валовой внутренний продукт), денежная масса, денежный агрегат (M2), дебиторская задолженность, кредиторская задолженность.

KIRISH

Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash uchun dastlab to'lovsizliklarga barham berish va to'lov intizomini mustahkamlash mamlakatimiz to'lov aylanmasidagi ahvolni yaxshilashning asosiy yo'nalishi sifatida e'tirof etilmog'i lozim. Chunki, eng avvalo, to'lovsizliklarga barham bermasdan va to'lov intizomini mustahkamlamasdan turib, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi sharoitida to'lov aylanmasidagi haqiqiy ahvolni yaxshilab bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi sharoitida to'lovsizliklar, ko'p jihatdan, bir qancha ishlab chiqarishlarning samarasizligi tufayli vujudga kelganligi uchun iqtisodiyotning real sektoridagi vaziyatni prinsipial yaxshilashning shartlaridan biri undagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'lib, buning natijasida talabga ega bo'lmagan mahsulot va bozoriy kelajakka ega bo'lmagan korxona bozordan chiqib ketishi lozim. Odatda, bozoriy kelajakka ega bo'lmagan korxonalar to'lovsizliklar zanjirida boshlanuvchi hisoblanadi yoki ular o'z mahsulotlarining baholarini oshirib, iste'molchilarda moddiy xarajatlar qo'shimcha o'sishining omili bo'lib xizmat qiladi.



To'lov aylanmasiga xos bo'lgan muammolardan biri bu to'lovsizliklar muammosi ekanligi ko'rinib turibdi. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi iqtisodiyotning real sektoriga e'tiborni kuchaytirishning zarur ekanligini yana bir bor ko'rsatayapti.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlash maqsadida G.A.Shvars tomonidan berilgan ta'rifda, ko'rinib turibdiki, to'lov aylanmasi pulni bir funksiyasi, ya'ni to'lov vositasi funksiyasi bilan bog'langan. Ana shuni hisobga olgan va undan kelib chiqqan holda u o'ziga xos bo'lgan quyidagi mantiqiy xulosaga kelgan: "To'lov aylanmasi pul aylanmasining bir qismi hisoblanadi". Bu chiqarilgan xulosadan ko'rinib turibdiki, to'lov aylanmasi har doim miqdor va hajm jihatidan pul aylanmasidan kichik bo'lishi kerak.

M.P.Berezinaning fikriga ko'ra, "...pul aylanmasining asosiy qismini to'lov aylanmasi tashkil etib, unda pullar to'lov vositasi sifatida amal qiladi"[1]. Boshqa bir guruh iqtisodchi-olimlarning qarashlariga binoan "to'lov aylanmasi kompaniyalar va korxonalar pul aylanmasining bir qismi bo'lib, unda pulning to'lov vositasi, majburiyatlarni uzish (qaytarish) vositasi sifatidagi harakati aks etadi"[2]. A.B.Borisov tomonidan ham ilgari suriladi: "To'lov aylanmasi pulning to'lov, majburiyatlarni qaytarish (uzish) vositasi sifatidagi harakatini aks ettiradigan korxonalar, kompaniyalar pul aylanmasining bir qismidir. To'lov aylanmasining asosiy qismini materiallarni etkazib beruvchilarga to'lovlar, ish va xizmatlar uchun to'lovlar tashkil etadi. To'lov aylanmasi naqd pulli va naqd pulsiz shakllarda amalga oshiriladi"[3].

Biroq, shunday bo'lishiga qaramasdan, to'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashga xizmat qiluvchi yuqoridagi yondoshuvlardan farqli bo'lgan yondoshuvlar ham mavjud. Ana shunday farq qiluvchi yondoshuv mualliflaridan biri A.M.Kosoy hisoblanadi. U o'zining ilmiy tadqiqotlari natijalariga va amaliyotdagi haqiqiy holatga suyanagan holda pulning to'lov vositasi sifatida foydalanish asosida vujudga keladigan to'lovlar majmui sodir bo'layotgan to'lovlarning bir qismidan iborat ekanligini, pul aylanmasining har qanday qismi pulning turli funksiyalari bajarilishiga asoslanganligini isbotlab bergan[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asosiy ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning nazarimizda, to'lov aylanmasining mohiyati xususida ilmiy va amaliy jihatdan etarli darajada asoslangan aniq bir pozitsiyaga ega bo'lmasdan turib, unga tegishli bo'lgan muammolar va ularni hal qilish yo'llari to'g'risida gapirish o'zining ma'nosiga ega emas. Shu munosabat bilan eng avvalo shuni alohida qayd etish kerakki, to'lov aylanmasining mohiyati ikkiyoqlamalik xarakterga ega bo'lib, u bir-biridan nisbatan mustaqil bo'lgan ikki mohiyatning mantiqiy qo'shilishidan tarkib topadi. Gap bu erda "to'lov" va "aylanma"ning nisbatan bo'lsa-da, mustaqil mohiyatga ega ekanligi xususida ketayapti. Ana shundan kelib chiqqan holda to'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashni to'lovning mohiyatini aniqlashdan boshlash kerak deyish o'zining asosiga egadir. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, "to'lov aylanmasi"ning mohiyatini "to'lov"ning mohiyatini aniqlamasdan turib aniqlashning iloji yo'q.

Azaldan amaliyotda "to'lov" deyilganda, odatda, qandaydir bir majburiyatga ko'ra (muvofig) pulning to'lanishi tushuniladi. Zamonaviy talqin qilinish nuqtai-nazaridan esa sotib olingan tovarlar, foydalanilayotgan resurslar, taqdim qilingan kredit va h.k.lar uchun qonunga muvofiq o'rnatilgan badallar ko'rinishidagi, majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblar shaklidagi pul mablag'lari to'lovdir. Biroq, bu erda shu narsani qayd etish joizki, to'lovga nisbatan yuqoridagi bildirilgan har ikkala fikrda (ta'rifda) ham, bizning fikrimizcha, to'lovning tashqi namoyon bo'lishi o'z aksini topgan. To'lovning o'ziga xos bo'lgan chuqur iqtisodiy munosabatlarni aks ettirishi, uning aloqalari va xususiyatlari yuqoridagi ta'riflarning chegarasidan chetda qolgan.

Bir vaqtning o'zida, mulkchilik shakllarining o'zgarishi va bozor munosabatlarining tobora rivojlanishi bilan tovar-pul munosabatlari tizimida va kredit munosabatlarida to'lov birinchi darajali elementlardan biriga aylanmoqda. Bunday fikrimizning to'g'ri ekanligini tovarlar uchun hisob-kitoblarda oldindan to'lovning qo'llanilayotganligi, to'lovni amalga oshirmayotganlarga nisbatan tovarlarni etkazib berish va xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish amaliyotining kengayayotganligi, to'lov layoqatiga ega bo'lmagan korxonalarga nisbatan kreditlarning keskin qisqarayotganligi kabilar tasdiqlaydi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, to'lov tufayli pul va kredit amal qiladi. Agar puldan uning to'lov xususiyati (xossasi, funksiyasi) olib tashlansa, u pul bo'lmay qoladi. Xuddi shunday fikr kreditga ham tegishlidir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida to'lov harakat, makon, zamon, qarama-qarshilik, xususiylik, umumiylik, sifat, miqdor, sabab, oqibat, mazmun va shakl kabi falsafiy kategoriyalarning xilma-xilligini o'zida namoyon etadi.




Uning ana shunday falsafiy kategoriyalar bilan o'zaro bog'liqligini chizmalı ko'rinishda, bizningcha, quyidagicha tasavvur etish mumkin (1-chizma).

Shu o'rinda to'lovning shakli masalasi ustida alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy kategoriyalar iqtisodiy materiya mavjudligining eng umumiy shakli bo'lganligi uchun to'lov kategoriyasi pul va kredit ko'rinishidagi moddiy shakllanmalar mavjudligining eng umumiy shaklidan iborat. To'lov muomalaga pul emissiya qilish jarayonlarida, pul tomonidan uning barcha funksiyalarining bajarilishida, muomaladan pul olinganda, kredit vujudga kelganda, uning har tomonlama amal qilishi va qaytarilishi (uzilishi)da namoyon bo'ladi. Hatto pul zahirada bo'lganida ham u potensial to'lovlarning belgisini o'zida mujassam etadi.

Iqtisodiy kategoriya bo'latirib, to'lov eng umumiy shakl sifatida korxonalar o'rtasidagi, korxonalar va uy xo'jaliklari o'rtasidagi, ular va davlat o'rtasidagi, banklar o'rtasidagi, korxonalar va aholi, jismoniy shaxslar o'rtasidagi, mamlakatning mintaqalari o'rtasidagi va mamlakatlar o'rtasidagi to'lov munosabatlarining xususiy shakllarini o'zida namoyon etadi. To'lovning namoyon bo'lish shakllari u harakatlanishining xususiyatlarida va turli to'lov instrumentlari orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblarda ham aks ettiriladi.

Har bir to'lov ikki shaklda, ya'ni gorizontal va vertikal shaklda amalga oshiriladi. Gorizontal shakldagi to'lov deyilganda to'lovchidan mablag'larning oluvchiga o'tishi tushuniladi. Vertikal shakldagi to'lov deyilganda esa to'lov kontragentlari majburiyatlari va to'lov resurslarining o'zgarishi nazarda tutiladi. Harakatlanishning gorizontal va vertikal shakllari bir medalning, ya'ni to'lovning ikki tomonidir. Harakatlanishning gorizontal shakli to'lovlarni amalga oshirish va ularni tenglashtirish uchun mo'ljallanilgan. O'z navbatida, harakatlanishning vertikal shakli esa to'lovlarni tenglashtirishning intensivligi orqali aniqlanadi. Tenglashtiriladigan to'lovlarning salmog'i qancha yuqori bo'lsa harakatlanishning vertikal shakli shuncha kam namoyon bo'ladi. Va aksincha, to'lov aylanmasida tenglashtiriladigan to'lovlarning salmog'ining pasayishi (qisqarishi) kredit va pul qoldiqlarining katta yoki kichik oshishi yoki kamayishi ko'rinishidagi to'lov vertikal harakatlanish shaklining oshishiga, ularning o'rtacha o'lchamlaridan farqlanishiga olib keladi. Bunday farqlanishlar tez-tez iqtisodiyotdagi nisbatlarning makro- va mikrodarajalarda o'zgarishi bilan bog'langandir.

To'lovning harakatlanish shakllari pul-kredit aylanmasiga mablag'larning qaytariluvchanligi bilan mustahkam bog'langan bo'ladi. Uning harakatlanishi faqat gorizontal shakl bilan cheklangan bo'lsa, mablag'larning qaytariluvchanligi nolga teng bo'lib qolishi mumkin. Masalan, korxona bankga 10,0 mln. so'mlik kreditni qaytarishi va bir vaqtning o'zida bankdan shu summaga teng bo'lgan kreditni olishi mumkin.



1-chizma. Iqtisodiy kategoriya sifatida to'lovning falsafiy kategoriyalar bilan bog'liqligi¹

1 Chizma tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Ko'rinib turibdiki, bu jarayonda to'lov harakatlanishining vertikal shakli sodir bo'lmagan. Va faqat shu holda, ya'ni korxona bankdan oldin olingan kreditni qaytarib, yangi kreditni olmagan holda, to'lov harakatlanishining gorizontal va vertikal shakllari o'zlarining o'Ichamlari bo'yicha bir-biriga to'g'ri (mos) kelgan.

To'lov harakatlanishining ikki shaklidan uni ikki xil tarzda o'Ichash kelib chiqadi. Birinchi o'Ichash yalpi aylanmaning ko'lamini va ikkinchi o'Ichash esa aylanmaning qoldig'ini o'zida aks ettiradi. Ana shunday o'Ichashlar to'lov aylanmasining turlicha bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Yalpi aylanma to'lovlar va mablag'larning tushishini o'zida aks ettirsa, aylanmaning qoldig'i esa to'lovlarning mablag'lar tushumidan ortgan qismini yoki aksincha, mablag'lar tushumining to'lovlardan ortgan qismini ko'rsatishi mumkin.

To'lov harakatlanishining ikki shakli xususidagi masala "to'lov oqimi" tushunchasi munosabati bilan muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu erda to'lovga bevosita daxldor bo'lgan "to'lov oqimi" tushunchasiga nisbatan ham aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, to'lov oqimi ikki elementdan, ya'ni yalpi aylanmalar (mablag'larning to'lanishi va ularning kelib tushishi) va aylanmalar qoldig'ining o'zgarishidan iborat bo'lganligi uchun unga ta'rif berilayotgan paytda, eng avvalo, ana shu ikki element, albatta, hisobga olinishi kerak. Ana shundan kelib chiqqa holda, to'lov va to'lov aylanmasining mohiyatini aniqlab berishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan to'lov oqimga, bizning fikrimizcha, quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'lum bir davrda (oralig'ida) va bir vaqtning o'zida gorizontal va vertikal shakllarda amal qiladigan hamda iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil bo'lgan to'lovlarning majmui (yig'indisi)ga to'lov oqimi deyiladi.

To'lov oqimlari harakatlanishining ikki shakli o'rtasida doimiy aloqa (bog'lanish) mavjud bo'lib, bunday aloqa (bog'lanish) to'lovning gorizontal harakatlanishi tezligiga asoslangan. Chunki, odatda, mablag'lar harakatlanishining tezligi qancha yuqori bo'lsa, shuncha oz mablag'lar hisob-kitoblarda turib qoladi va bank hisob varaqlarida mablag'larning qoldig'i shuncha katta (yuqori) bo'ladi. Bir vaqtning o'zida to'lovlarni tezlashtirish tendensiyasi, o'z navbatida, shunday kontrtendensiyani tug'diradiki, unga ko'ra bir qator banklar hisob-kitoblarda mablag'larning oshishidan (ko'payishidan) manfaatdor bo'lib qoladi. Bu fan va amaliyotda flout nomini olgan bo'lib, undan bank resursi sifatida foydalaniladi. Taajjublanarlisi shundaki, floutning mavjud ekanligi, ma'lum darajada, yirik miqdordagi summalarining o'tkazilishiga nisbatan elektron tizimining joriy etilishiga to'sqinlik qiladi. Bunday to'sqinlik qilish iqtisodiyotning mustahkamlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hisobga olgan holda, bizning nazarimizda, floutning qisqarishini banklar tomonidan yuqori tezliklarda o'tkazilayotgan hisob-kitoblar bo'yicha amalga oshirilayotgan tariflarni oshirish yordamida kompensatsiya qilmoq lozim.

To'lov oqimlarining tezligi ideal to'lovlarning real to'lovlarga aylanishini masalasini ham ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Real to'lovlardan farqli o'laroq, ideal to'lovlar shartnomalarda, bitimlarda, rejalarda va bashoratlarda o'z aksini topadi. Xususan, o'z tovari uchun to'lovning qachon olinishi, to'lov sifatida nimaning olinishi, ya'ni pulning yoki kelgusida to'lash uchun majburiyatning olinishi mol etkazib beruvchini qiziqtiradi. O'z navbatida, real to'lovlar mol etkazib beruvchiga u tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarning foydaliligini tasdiqlaydi, yangilanish va juda ko'p hollarda esa tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun asos yaratadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanish yoki uning pasayish sur'atlariga to'lovlarning ta'siri, ko'p jihatdan yana ularning tovarli va tovarsiz to'lovlarga bo'linish nisbat (proporsiya)lariga bog'liq. Sotuvchi tovarning almashtirilishiga muvofiq pulning olishi bilan xarakterlanadigan tovarli to'lov aylanmasidan farqli o'laroq tovarsiz to'lov aylanmasida, masalan, soliq inspeksiyasi soliq to'lovchining soliq majburiyatiga muvofiq ravishda pulni oladi, kredit majburiyatiga muvofiq ravishda bank qarz oluvchining pulini, bank majburiyatining almashtirilishi asosida bank omonatga pul topshirgan kreditorning pulini oladi va h.k. Demak, tovarsiz to'lov aylanmasida pulning qarziy yoki kredit majburiyatlariga almashtirilishi sodir bo'ladi.

Tovarsiz to'lov aylanmasi o'zining qiymat mazmuniga ega. O'zining qiymat substansiyasiga ko'ra tovarsiz to'lovlar, tovar qiymatining bir qismi bo'lsa-da, iqtisodiyotdagi roli bo'yicha teng bo'lmashligiga qaramasdan, tovarli to'lovlarga tenglashtiriladi. Tovarli va tovarsiz to'lovlar belgisi bo'yicha to'lov aylanmasi tarkibiy tuzilmasining dinamikasi (o'zgarishi) to'lov aylanmasi sifat aloqalarining o'zgarishini aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda biz to'lov aylanmasining mohiyatini ochib berish maqsadida "to'lov"ning kategorial xususiyatlarini va "to'lov oqimlari" harakatining konturlarini aniqlashga harakat qildik. Ushbu tahlil to'lov aylanmasining turli jihatlarini yanada kengroq va aniqroq tushunish imkoniyatini yaratdi. To'lovlar tizimining qanday ishlashini, ularning qanday bosqichlardan o'tishini, to'lov oqimlarining iqtisodiyotda qanday rol o'ynashini tushunishga yordam berdi.

To'lovlar, ularning turlari (ichki yoki xalqaro, moliyaviy yoki noma'lum moliyaviy), va ularning amaliyotdagi o'zni haqidagi aniqlik to'lov tizimlarining samaradorligi va xavfsizligini oshirishga katta yordam beradi. Ayniqsa, to'lovlar oqimining qanday ishlashini o'rganish bizga turli sohalarida, masalan, bank sohasida, chakana savdoda va davlat xizmatlarida to'lov tizimlarining qanday faoliyat ko'rsatishini va ular qanday qilib kapitalni harakatga keltirishi kerakligini yanada to'liq tushunishga imkon beradi.



Ilmiy nuqtai nazardan, bu tushunchalar iqtisodiy rejalashtirish, siyosat ishlab chiqish va moliyaviy prognozlash uchun aniqroq modellarni ishlab chiqishga yordam beradi. Shuningdek, bu, moliyaviy inklyuziya va raqamli to'lov tizimlarining global iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni haqida kengroq muhokama yuritishga imkon beradi. To'lov aylanmasining chuqurroq o'rganilishi bizni moliyaviy samaradorlik, xavfsizlik va keng imkoniyatlar yaratishdagi muammolarni hal qilishga yaxshiroq tayyorlaydi.

To'lov mexanizmlari bo'yicha yanada chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish: Zamonaviy to'lov tizimlarining murakkabligi, ayniqsa raqamli va mobil to'lovlar tizimlarining rivojlanishi, to'lov oqimlarining samaradorligi va xavfsizligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni, masalan, blokcheyn, sun'iy intellekt va mashinasozlikni integratsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Bu texnologiyalarni to'lov tizimlarida qo'llash, ularning ishonchligini va samaradorligini oshiradi, shuningdek, moliyaviy tizimlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy inklyuziya uchun siyosatlarni ishlab chiqish: Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar, ayniqsa moliyaviy xizmatlar yetarli darajada taqdim etilmagan hududlarda, xavfsiz va arzon to'lov tizimlariga kirishni osonlashtiradigan siyosatlarni ishlab chiqishlari kerak. Bu siyosatlar moliyaviy inklyuziya bo'yicha mavjud bo'shliqni kamaytirishga yordam beradi va barcha ijtimoiy qatlamlarga to'lov tizimlaridan foyda olish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, bank hisoblari va moliyaviy xizmatlar mavjud bo'lmagan hududlarda raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish zarur.

To'lov tizimlarida innovatsiyalarni rag'batlantirish: To'lov texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etishni rag'batlantiradigan muhit yaratish zarur. Innovatsion to'lov tizimlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlatlar va xususiy sektorga yirik investitsiyalar kerak. Bu, an'anaviy va raqamli to'lov usullarini birlashtirishning yo'llarini o'rganishni o'z ichiga oladi, shunda barcha foydalanuvchilar uchun samarali va uzluksiz tranzaksiyalar taqdim etilishi mumkin. Shuningdek, ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali to'lov tizimlarini tezkor va xavfsiz qilish zarur.

To'lov oqimlari bo'yicha qonunlar va tartib-qoidalarni kuchaytirish: To'lov tizimlarining global o'zaro bog'liqligining ortishi bilan birga, to'lov oqimlarining shaffof, xavfsiz va firibgarlikdan xoli bo'lishini ta'minlash uchun tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Xalqaro darajada reglamentlar o'rnatish to'lov tizimlarining barqarorligi va xavfsizligini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tartib-qoidalar nafaqat to'lov tizimlarining integratsiyasini, balki global moliyaviy inqirozlar va moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish imkoniyatlarini ham ta'minlaydi.

Shu bilan birga, to'lov tizimlarining samaradorligini oshirish va global moliyaviy tizimni takomillashtirish yo'llarini izlashda, davlatlar va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. To'lov oqimlarining to'g'ri ishlashini ta'minlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qattiq tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T: O'zbekiston, 2017.
2. Berezina M.P. Beznalichnye raschyoty v ekonomiki Rossii. Analiz praktiki. – M.: AO "Konsaltbankir", 1997. –s.5.
3. Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubseva Ye.B. Sovremennyy ekonomicheskii slovar. – M.: Infra-M, 2000. – s. 288.
4. Borisov A.B. Bolshoy ekonomicheskii slovar. – M.: Kniznyy mir, 2003. – s. 895.
5. Kosoy A.M. Platejnyy oborot: issledovanie i rekomendatsii. – M.: Finansy i statistika, 2005. – 264 s.
6. Dostov V.L., Shust P.M., Valinurova A.A., Puxov A.V. (2012) Elektronnyye finansy. Mify i realnost/ -M.:KNORUS: SIPSIR, -232 s.
7. Platejnye i raschetnye sistemy. Mejdunarodnyy opyt. Innovatsii v roznichnyx platejax. Vypusk 43. Vypusk podgotovlen Departamentom natsionalnoy platejnoy sistemy Banka Rossii. - C.8 (www.cbr.ru)
8. Raximova X.U. (2016) Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: Moliya. - 299 b.
9. Raximova X.U. (2017) Elektronnyaya kommersiya v Uzbekistane: sostoyanie, problemy i puti razvitiya. - T.: Moliya. - 111 b.
10. Taraqqiyot.uz sayti <http://taraqqiyot.uz/2018-yil-faol-tadbirkorlik-innovatsion-goyalar-va-tehnologiyalarni-k-ullab-k-uvvatlash-yili>
11. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari
12. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining milliy ma'lumotlar bazasi rasmiy sayti ma'lumotlari



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
